

## **Chet tilini o‘rganish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan kamchilik va muammolarni bartaraf etish chora tadbirlari**

**Davlatova Dildora Dilshod qizi**

Terniz davlat universiteti “Xorijiy filologiya fakulteti” 313-guruh talabasi

**Ilmiy rahbar: Imomova Umida Muzafarovna**

Termiz davlat universiteti “Xorijiy filologiya fakulteti” katta o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** : O‘zbekistonda turli millat vakillari yashaydilar, ular davlat tilidan tashqari, o‘zlarining ona tillaridan ham foydalanadilar. Har bir til- o‘ziga xos boylikka va imkoniyatlarga ega. Ko‘p tilni bilish kishining madaniy saviyasini belgilaydi. Maqolada shu tillarning imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalangan holda til bilish darajasini O‘zbekistonda va xalqaro darajada amal qiladigan sertifikatlar haqida ma‘lumotga ega bo‘lish mumkin.

**Kalit so‘z:** So‘z boyligi, vaqt yetishmasligi, til o‘rganish jarayonidagi fikrlar xilma- xilligi, o‘quvchining yuzaga chiqmagan ichki qobilyatlari, til o‘rganish jarayonidagi to‘siqlar

Joriy yildan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan imkoniyatlar va o‘zgarishlar natijasida oliy o‘quv yurti magistratura bosqichi, ikkinchi mutaxassislik imtihonlariga va chet tili o‘qituvchisi sifatida ishga kirish jarayonlari uchun kasbiy mahoratdan tashqari chet tilini bilish sertifikatlari ta‘lab qilinmoqda. Bu esa “Qanday faoliyat bilan shug‘ullanmaylik chet tili har qadamimizda kerak”,- degan tushunchani yuzaga keltiradi.

Til o‘rganish jarayonida hammada turlicha mummolar va kamchiliklar mavjud bo‘ladi. Misol uchun:

- Chet tilida o‘rgangan so‘z va grammatik qoidalarni tezda unutish;
- Vazifalarni bajarish uchun noto‘g‘ri usullardan foydalanish;
- Faoliyat jarayonida ona tili qonun - qoidalari bilan o‘rganilayotgan til o‘rtasidagi tafovutlar orasidagi chalkashlilik;
- Chet tiliga oid tushunchalarni tushunishda qiyinchilik va nutq jarayonida qo‘llay olmaslik;
- O‘zidagi qobilyatga bo‘lgan ishonchning pastligi va tez orada taslim bo‘lib o‘rganish jarayonini to‘xtatish va boshqalar.



Bu muammolar yuzaga kelishining asosiy sabablari: tilni o‘rganishga qiziqish va motivatsiya pastligi, til o‘rganish qobiliyatlariga kam baho berish, o‘rganishda til va nutqning nisbati, til o‘rganishda to‘siqlar mavjudligi va boshqalar.

Xo‘sh bu muammolarning yechimi qanday? Hozirgi zamonda barcha muammolarni bartaraf etsa bo‘ladi. Buning uchun faqatgina xohish va mehnat qilish kerak. Endi yuqoridagi muammolarni bosqichma – bosqich bartaraf etishni ko‘rib chiqaylik.

### **Chet tilida o‘rgangan so‘z va grammatik qoidalarni tezda unutish.**

Bu ko‘pgina o‘quvchilarda mavjud bo‘lgan eng ko‘p ko‘zga tashlanadigan muammodir. Barcha yangi lug‘atlarni eslab qolish qiyin. Boshqacha qilib aytganda, yangi so‘zlar “o‘rganiladi, yodlanadi” va ular yana tez fursatda unutiladi.

Yangi so‘zlarni yanada yaxshiroq va tezroq yodlashga va eslab qolish uchun avvalam bor qanday lug‘atlardan foydalanishga kata e‘tibor qaratish-o‘rganilayotgan tilning izohli lug‘atlaridan foydalanish; o‘rganilayotgan yangi so‘zlarni eskisi bilan birlashtirgan holatda o‘rganish, masalan car – mashina so‘zini yodlamoqchi bo‘lsak u bilan birga oldin yotlangan bironta sifatni qo‘shib yodlaymiz new car- yangi mashina kabi; rasmlar, turli xil rasmlardan foydalanishimiz mumkin-buning uchun rasm va kartochkaga o‘rganilayotgan so‘zni yozib ko‘zimiz ko‘p tushadigan joyga yopishtirishimiz va kun davomida takrorlash; kun davomida o‘rgangan yangi so‘zimizni har 10 daqiqada nutq faoliyatida ishlatib gap tuzishga harakat qilsak yangi so‘z xotiramizda biz bilan abadiy qoladi; tilni tezda o‘rganish uchun asosiy qilinishi kerak bo‘lgan vazifalardan biri bu o‘rganilayotgan tilni hayotimiz bilan birlashtirib o‘rganishdir, har qaysi uyda bajarilayotgan va ish jarayonidagi faoliyat turida: ovqat qilguncha, uyni tartibga keltirishda, dars qilguncha, kitob o‘qishda, telefon yoki kompyuterlasrimizdan foydalanguncha tildan samarali foydalanishni o‘rganish kerak; biz kuniga 10 ta yoki 20 ta so‘zni yodlashimiz mumkin lekin uni doimiy ravishda takrorlab turmasak 1 yoki 2 kundan so‘ng o‘rgangan so‘zimiz bilan xayrlashishimizga to‘g‘ri keladi. Biz yodlagan so‘zimizni unutmasligimiz uchun doimiy takrorlab turishimiz kerak. Bu jarayonda bizga telefonimiz yordam berishi mumkin: takrorlamoqchi bo‘lgan so‘zni telefonimizga ovozimizni yozib olamiz va har qaysi vaqtda uni eshitib birga takrorlasak bo‘ladi. Bu bilan biz nafaqat yangi so‘zni samarali yodlaymiz, balki to‘g‘ri talaffuz qilishni ham o‘rganamiz.

**Vazifalarni bajarish uchun noto‘g‘ri usullardan foydalanish.** Hamma ham faoliyatidan kelib chiqib vazifalarni bajaradi., lekin buning uchun vazifa bajarishdan oldin o‘ylab ko‘rishi : “ Men vazifalarimni qaysi usulda bajarsam,



manfaatliroq bo‘ladi”, - deb fikr yuritishi kerak. Shundagina faoliyatini o‘zini usulida tez va samarali tashkil etish mumkin.

**Faoliyat jarayonida ona tili qonun – qoidalari bilan o‘rganilayotgan til o‘rtasidagi tafovutlar orasidagi chalkashliliklar.** Yangi tilni o‘rganish jarayonida ona tilimizdagi qonun- qoidalar ko‘pincha yordam beradi, lekin fikrlash jarayonida ikki tildagi tushunchalarni farqlashda bir qancha ikkilanishlar yuzaga kelishi mumkin: Avvalo, tilni o‘rganishga maqsad qo‘yildimi o‘zimizni tilimizda fikrlashni to‘xtatishimiz kerak. Chunki chet tilida shunday so‘zlar, iboralar, so‘z birikmalari borki uni o‘zimizning ona tilimoizda ayni bir xil ekvivalenti mavjud emas, yoki aksi, bizning tildagi so‘z boyligimiz o‘rganilayotgan tilga to‘g‘ri kelmasligi mumkin, masalan: “Wie geht es Ihnen?”- gapini o‘zbek tiliga so‘zma - so‘z tarjima qiladigan bo‘lsak- “qanday ketyapsiz?”, – deb tarjima qilinadi. Vaholanki bu gapning tarjimasi –“ Ahvollaringiz qanday?”- bo‘ladi.

**Chet tiliga oid tushunchalarni tushunishda qiyinchilik va nutq jarayonida qo‘llay olmaslik.** Bu eng keng tarqalgan til o‘rganish muammolaridan biridir. Ko‘pgina o‘quvchilar chet tilini tinglash orqali bir oz narsani tushunishlarini aytishadi. Ammo faol foydalanish, ayniqsa gapirish, ular uchun muammo hisoblanadi. Buning asosiy sababi esa “klassisches Vokabelpauken” nemis tilida bu birikma o‘z ona tilingizdan hech qachon ajralmaganlikni bildiradi. Bu degani faoliyat jarayonida aytilgan gapni ona tilimizga tarjima qilishga harakat qilamiz, natijada vaqtni ham, aytmoqchi bo‘lgan fikrlarimizni ham yo‘qotamiz. Bu yaxshi fikr emas, chunki biz chet tilidagi jumla tuzilishi haqida shunday fikrlaymiz. Biroq, chet tili deyarli boshqa jumla tartibiga amal qiladi. Agar biror so‘z xayolingizga kelmasa, asabiylashasiz va miyangiz darrov stress gormonlarini chiqara boshlaydi. Bular o‘z navbatida fikrlashni yanada qiyinlashtiradi va bu chet tilida gapirishni qiziqarli qilishdagi eng katta to‘siq hisoblanadi.

**O‘zidagi qobiliyatga bo‘lgan ishonchning pastligi va tez orada taslim bo‘lib o‘rganish jarayonini to‘xtatish.** Til o‘rganishning bu muammosi ortida bir qancha sabablar ham bor. Shunday qilib, sizning til sarguzashtingiz tez va keskin yakunlanishiga olib keladi. Buning asosiy sabablari quyidagilardir: “O‘qishga vaqtim yo‘q”, “Men tezda til o‘rganishga qiziqishimni yo‘qotaman” kabi asossis bahonalar orqali o‘zini ishontirishdan iborat.

Bu muammolarning yechimi esa asossis vaqt sarflashni bas qilib, dars qilish uchun qulay bo‘lgan vaqt asosida reja tuzib o‘rganishdir. Albatta, mavjud vaqtdan qanday foydalanish kerak, degan savol tug‘iladi:

- Tushlikdan keyin 15 daqiqalik tilga oid ma'ruza.
- TransREAL tarjimalarim uchun shanba kuni ertalab (tarjima faoliyati chet tilida ham o'qish faolkiyatini, ham o'rganilayotgan tildagi insonlar kabi fikrlashni o'rgatadi).
- Yangiliklarni chet tilida tomosha qiling.

Bular o'rganishni faoliyat bilan mazmunli bog'lashning uchta misolidir. Til o'rganayotgan shaxs o'zidan kelib chiqib reja tuzishi mumkin. Agar shu tuzgan kun tartibi asosida shug'ullanib til o'rgansa, tez orada juda katta samara va natijalarga erishiladi.

Hech kim xo'jayin yoki o'qituvchi uchun o'rganishni yoqtirmaydi. Shuningdek, o'quv rejangizga kichik muvaffaqiyat hikoyalarini kiriting. Bular uzoq muddatda motivatsiyani saqlab qolishga katta yordam beradi. Bu sizning maqsadlaringizni qanday qilib to'g'ri belgilashni tasvirlaydi.

Har qanday o'rganish strategiyasining muhim qismi bu yaxshi til kursidir. Yaponlar “Yaxshi ustoz bu sendagi yarim bilimdir” – deb bekorga aytishmaydi. O'quchining qobilyatini yuzaga chiqorib bera oladigan, unga to'g'ri yo'nalish bera oladigan va maqsadi yo'lida sobit qadam bilan ketishiga ko'maklashadigan inson bu – ustozdir. Ustoz o'rgatgan narsa faqatgina o'quv faoliyatidagina qolib ketmasligi kerak, uni iloji boricha nutq jarayonida samarali qo'llash kerak bo'ladi. Bu 99 % maqsadga erishish usulidir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak til o'rganish jarayoni hammada har xil kechadi. Kimdadir oson, kim uchundir qiyint. Ammo qiyint ekan deb aslo voz kechmaslik, harakatdan aslo to'xtamasdan, oldindagi maqsad sari ildam qadam tashlash kerak. Bugungi o'rganish jarayonidagi to'siqlar, uni bartaraf etgandan keyin juda soddaday tuyuladi. Har bir muammoning yechimi bor! Yangi tilda gapirish - yakuniy maqsad. Va muammoni hal qiluvchilar sizning maqsadingizga tez va muvaffaqiyatli erishishingiz uchun yo'lida sizga hamroh bo'lishlari mumkin.

Muammoning aniq nima ekanligini ko'rishingiz kerak. Shaxsiy vaziyatingizni tahlil qiling va yechimni o'zingizga moslang. Har kim har xil o'rganadi va shuning uchun echimlar boshqacha ko'rinadi. Buning sababi ko'pincha ko'rinadiganidan biroz chuqurroqdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Alyamkina E.A. Qobiliyat, mayl va iste‘dodning o‘zaro bog‘liqligi va ularning universitet o‘quv jarayonida rivojlanishi / Alyamkina E.A.// Psixolog. – 2015. № 2.
2. Galskova N.D. Chet tillarni o‘qitish nazariyasi. Lingvodidaktika va metodologiya / N.D.Galskova. – M.: Академия, 2008.
4. Jerlygina A.V. Ona va chet tillarida erkin og‘zaki birlashmalardagi farqlar / A.V.Jerlygina // Psixologiya i Psixotexnika. – 2010. – № 9.

